



## SOVET HUKUMATINING O'ZBEKISTONDA OLIB BORGAN MADANIY OQARTUV ISHLARI

**Xasanova Nodira Ibragimovna, Ph.D**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tarix va falsafa" kafedrası katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Anotatsiya:** Sovet hukumatining O'zbekistonda olib borgan madaniy oqartuv ishlari sirasiga klublar, qizil choyxonalar, teatrlar bilan birgalikda muzeylarni kiritish mumkin, Muzeylar o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ma'naviyat ko'prigi hisoblanadi. Shu jumladan, yoshlarimizni tariximizga, milliy urf-odat va an'analарimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Maqolada Sovet hukumatining madaniy oqartuv muassasalaridan biri Surxondaryoda tashkil etilgan va hozirgi kunda ham faoliyat olib borayotgan muzeylar tarixi haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** yer-suv xo'jaligi, davlat muzeyi, okrug, o'lkashunoslik, Zoologiya burchagi.

Sovet hokimiyati yillarida barcha viloyatlar qatori Surxondaryoda ham yirik madaniy o'zgarishlar amalga oshirildi. Viloyatimiz madaniyati tarixida kutubxona, klub, kinoteatr, muzey, san'at va xalq ijodiy uylari, havaskorlik dastalari, sport inshootlari kabi muassasalarning alohida o'rni va xizmati bor. Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan yana bir madaniy ma'rifiy muassasalardan biri bu o'lkashunoslik muzeyi hisoblanadi. Darhaqiqat, Surxondaryo san'atini, madaniy yutuqlarini aholi o'rtasida targ'ib qilishda o'lkashunoslik muzeyining xizmati, madaniy tarbiyaviy tadbirlari muhim o'rin tutadi. Bu muzey 1934 yilda (1933 yilda uyushtirilgan xalq xo'jaligi ko'rgazmasi asosida) Termiz shahrida tashkil qilingan. Unda voqea o'tmishi va moddiy madaniyatiga doir osori-atiqalar yig'ila boshlaydi. Muzeyda Termiz va termiziy allomalar tarixi, qadimshunoslik va tangashunoslik, xalq og'zaki ijodi, etnografiyasi, xalq, amaliy san'ati, o'lka tabiati, sporti, tasviriy san'at bo'limlari hamda 14 ming nusxadan ziyod asarga ega kutubxona bor. Muzey fondi 64 mingdan ortiq (2004). Ekspонатlar Surxondaryo viloyatining eng qadim zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixi va madaniyati haqida hikoya qiladi: turli davrlarga oid zargarlik buyumlari, turli davrlarda zarb qilingan tangalar, hunarmandlik buyumlari, ganch o'ymakorligi, me'moriy yodgorliklar qoldiqlari, sopol buyumlar, haykalchalar, to'qimachilik dastgohlari, uy anjomlari, ish qurollari mavjud. Muzey madaniy-ma'rifiy ishlarni amalga oshiradi, ko'rgazmalar tashkil etadi, ilmiy ishlar nashr qiladi, boshqa ko'pgina ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Endi muzeyning tashkil etilish haqida tarixga bir nazar tashlasak. Surxon vohasining boy o'tmishi, madaniyatini o'rganish ishlari asrimizning 20-yillaridan boshlangan. Bu yerdagi ilk arxeologik qazish ishlarini Sharq xalqlari san'ati va madaniyati muzeyi professori B.L.Deneboshchiligidagi ekspeditsiya boshlab berdi. Termiz va Chag'oniyonning o'rta asrlar tarixi davri moddiy madaniyatini o'rganish maqsadida 1926-1928 yillarda ko'hna Termizdagi Termizshohlar saroyida ilk bor arxeologik qazishmalar o'tkazila boshladi. Madaniy-oqartuv ishida muzeylar o'ziga xos o'rinni egallab keldi. Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyining tashkil qilinishi ikki fidoyi inson – Gavril Vasilyevich Parfyonov va Georgiy Nikolayevich Maksimovlarning nomi bilan bog'liq edi. 1933 yil 17 sentabrda Termiz tuman ijroiya qo'mitasi yig'ilishida tuman rejalashtirish bo'limi boshlig'i R.Gubaydullin va G.V.Parfyonovlarning ma'ruzalari tinglandi. Shu asosda Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyini tashkil etish 1933



yilning 17 sentabridan boshlandi. Uning ishi 1933 yilning 1 oktabriga qadar maxsus tuzilgan guruh zimmasiga yuklandi. Bu guruhga shahar xalq maorifi bo'limi boshlig'i Ribsov, shahar moliya bo'limi boshlig'i Amirxonov, rejalashtirish bo'limi boshlig'i Gubaydullin, yer-suv xo'jaligi boshlig'i Sharipov va G.V.Parfyonovlar kiritilgan edi.

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti huzuridagi Fanlar qo'mitasi tomonidan chiqarilgan Respublika muzeylar konferensiyasining Termiz shahrida tumanlararo davlat muzeyi tashkil etish to'g'risidagi qarori asosida O'zbekiston SSR Xalq maorifi vazirligidan 1934 yilning 1 yanvaridan boshlab Termiz tumanlararo davlat muzeyi tashkil etish va O'zbekiston SSR Xalq maorifi vazirligidan 1934 yilning 1 yanvaridan boshlab Termiz tumanlararo davlat muzeyining xarajatlar smetasini O'zbekiston muzeylari xarajatlari rejasiga kiritishni so'rab qaror qabul qildi.

Muzey dastlabki ko'rgazmasini tashkil etishda 6 ta bo'limdagi 559 ta eksponat bilan boshlab, uning 101 tasi tarix, 292 tasi sotsialistik qurilish, 166 tasi tabiat buyumlari edi. Shuningdek, kutubxonada 1500 ta ilmiy kitob va 2 ta ilmiy arxiv hujjatlari mavjud edi. Yangi muzey 1934 yilning 1 yanvaridan o'z faoliyatini boshladi. U Surxondaryo viloyati tumanlararo davlat muzeyi deb ataldi. Unga direktor etib, tashkilotchi va jonkuyar inson G.V.Parfyonov tayinlandi. Respublika xalq maorifi vazirligi muzeyning yillik xarajatlar smetasini 15 000 so'm qilib belgilagan bo'lsa-da, mahalliy moliya idorasi uni bir muncha kamaytirib, 14000 so'mga tushirdi. Muassasa jamoasi ikki qorovulni hisobga olmaganda, G.V.Parfyonov (direktor) bilan birga G.N.Maksimov (ilmiy texnik xodim) edi. Muzeyning ko'p xonali binosi aslida boshqa maqsad uchun qurilgan, eski va ta'mirtalab edi. Buning ustiga, xonalar hali to'liq bo'shatilmagan edi. Ammo astoydil mehnat natijasida 1934 yilning 1 mayida – bayram kuni muzey eshiklari tomoshabinlar uchun ochildi.

Muzeyda arxiv ham tashkil etildi. Unda viloyat ijroiya qo'mitasining 20 mingga yaqin rasmiy hujjati bor edi. Muzeyda arxiv hujjatlari saqlanadigan 2 ta xona mavjud bo'lib, keyinroq bu yerga viloyat partiya qo'mitasi, okrug qo'mitasi, Termiz tuman partiya va ijroiya qo'mitalari hujjatlari ham topshiriladigan bo'ldi.

Amalga oshirilgan ishlar o'z samarasini berib, muzey iqtisodiy jihatdan oyoqqa turgan muassasa sifatida 1936 yilga qadam qo'ydi. Masalan, 1935 yilda muzey faoliyati uchun 43 ming 303 so'm ajratilgan bo'lsa, 1936 yilga kelib, ajratilgan mablag' birdan to'rt baravarga oshirilib, 133 ming 383 so'mga yetdi. Bunga muzey jamoasining astoydil mehnati tufayli sobiq SSSR miqyosida tan olinishi tufayli erishildi. Muzey xodimlari soni 9 kishidan 13 kishiga yetdi. 1937 yilda o'tkazilgan turli tadbirlarni ham qo'shib hisoblaganda, muzeyga 45 ming 117 kishi tashrif buyurgan. Bu albatta, juda katta ko'rsatkich edi. 1939 yilga kelib, ya'ni faoliyat ko'rsatayotganligining beshinchi yiliga kelib, Surxondaryo okrug muzeyi respublikadagi eng yaxshi muzeylardan biriga aylandi.

Viloyatda faqat bitta muzey bilan cheklanib qolingani yo'q, albatta. 1934 yil 19 noyabrda O'zbekiston xalq maorifi komissarligi o'zining 4.157- farmoyishiga asosan Surxondaryo tumanlararo muzeyining SHerobod tumani filialini tashkil etdi. Bu muzeyning birinchi direktori etib, R.Aminova tayinlandi. Muzeyga SHerobodagi madaniy-oqartuv binosi berildi. Tumanlararo muzeyning SHerobod filialini tashkil etishda mahalliy faollardan S.A.Yastrebova, Y.Xairova, A.A.Andreyevalarning katta tashkilotchilik, faollik ko'rsatganlarini alohida ta'kidlash joiz. Natijada tabiat, tarix va madaniy kabi 7 ta bo'limdan iborat ekspozitsiya ochilib, unda 327 ta eksponat ko'rgazmaga qo'yildi. Muzey filialiga qiziqish katta bo'ldi. Muzey tashkil etilgan noyabrning oxirgi kunlarida unga 2380 kishi tashrif buyurgan bo'lsa, dekabr oyida kirgan kishilar bilan jami soni 5665 kishini tashkil etdi. 1935 yilda muzey direktori R.Aminova



Moskvadagi Butunittifoq muzeylar kursiga o'qishga yuborildi.

1935 yilda Surxondaryo okrugi tashkil etilishi munosabati bilan 20 iyuldan boshlab okrug ijroiya komiteti qarori bilan Surxondaryo davlat tumanlararo muzeyi okrug muzeyiga aylantirildi. SHerobod tumani o'lkashunoslik muzeyi esa okrug muzeyi filialiga aylantirildi. Ammo muzeylarning xalq ma'rifati yo'lidagi ahamiyatini hamma ham birdek tushunavermasdi. Ana shunday munosabat, aniqrog'i, SHerobod tumani xalq maorifi bo'limidagilarning, xususan, mudir Rafiqovning bu muhim masalaga panja orasidan qarashi tufayli 1935 yilda okrug o'lkashunoslik muzeyi SHerobod filialining ishi orqaga ketdi. Tuman rahbarlari muzey binosini tuman markaziy kutubxonasiga olib berishdi, direktor R.Aminova esa boshqa ishga o'tkazib yuborildi. Shunday qilib, qancha mehnatlar evaziga ochilgan muzey o'z faoliyatini to'xtatdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, okrug muzeyi yana bir madaniyat o'chog'i – Termiz hayvonot bog'ining tashkil etilishida ham muhim rol o'ynadi. 1934 yilning bahorida muzeyda tashkil etilgan zoologiya burchagi tez orada kengayib, alohida e'tibortalab qila boshladi. 1934 yilning 7 iyuniga kelib, muzeyning tirik burchagida 41 xil hayvon, parranda va darranda turi bor edi. Zoologiya burchagining tashkil etilishi, o'z navbatida, tomoshabinlar, birinchi galda maktab o'quvchilari sonining keyeskin oshishiga olib keldi. 1934 yilning 2 iyuliga qadar muzeyga kirish tomoshabinlar uchun bepul edi. Ammo muzey tirik burchagidagi hayvonlar yemishi uchun mablag' zarur edi. Shu bois, Termiz shahar ijroqo'mining 1934 yil 2 iyuldagi qaroriga asosan muzeyga tomoshabinlar uchun pullik xizmat yo'lga qo'yildi. Zoologiya burchagi keyinroq hayvonot bog'iga aylantirildi. Termiz hayvonot bog'ining tashkilotchisi va birinchi direktori G.N.Maksimov edi. O'zbekiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi hayvonot bog'i tashkil etishga ko'maklashdi. 1935 yilda ana shu maqsad uchun 70 ming so'm pul ajratdi. Tashkil etilgandan ikki yil o'tib, muzey qoshidagi zoologiya bo'limi faoliyati, hayvonot olami kengaydi. 1937 yil 21 yanvarida Termiz shahar kengashining qaroriga asosan, Termiz go'sht kombinati bilan shahar qamoqxonasi o'rtasidagi 20 gektar maydon Termiz hayvonot bog'i uchun ajratildi. Yer maydonda bog' yaratish, obodonchilik ishlarini bajarish uchun Toshkentdan ikkita suv nasosi-dvigateli olib kelinadi. 1937 yilda muzey jamoasi asosiy e'tiborni hayvonot bog'i uchun ajratilgan 20 gektar yerni va 15 gektar maydondagi to'qayni obod va ko'kalamzorlashtirish, hayvonlar, parranda va darrandalar uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratadi. Shu tariqa hozirgi kunda ham faoliyat olib borayotgan hayvonot bog'i o'z ishini boshladi.

Muzeyning bugungi holati haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan viloyatda madaniyat, adabiyot, san'at sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan uzoq yillardan buyon vohamiz tarixini, san'at asarlarini o'zida jamlab, xalqimizga beminnat xizmat qilib kelayotgan viloyat o'lkashunoslik muzeyiga Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi nomi berildi, hamda muzey kolleksiyalarini saqlash va tashrif buyuruvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan yangi muhtasham binoga ko'chirildi. Yuqoridagi kabi ishlar shunday e'tibor samarasidir desak mubolag'a b'olmaydi.

Muzeylar o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ma'naviyat ko'prigi hisoblanadi. Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi binosi Termiz shahrining ko'rkiga ko'rk qo'shish bilan birga aholi, shu jumladan, yoshlarimizni tariximizga, milliy urf-odat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muzeyning yangi binosi 3 qavatli bo'lib, uning ekpozitsiyasi "Tabiat", "Arxeologiya va tarix", "Tasviriy san'at", "Mustaqillik davri" hamda "Etnografiya" singari 5 ta bo'limdan iborat. Hozirgi kunda muzey fondida 16 ta yo'nalishda 61 ming 325 ta eksponat mavjud bo'lib, shundan, 3150 ta eksponat noyob ashyo va kolleksiyalar sirasiga kiradi. Muzeyda saqlanayotgan nodir



eksponatlardan o'tmishdan xalqimizning ming yillik an'analari, qadriyatlarini o'rganish imkoniyati mavjud. Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining 1,3 gektar yer maydoniga ega yangi binosi uchun 19,5 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 15,0 milliard so'm qurilish-ta'mirlash ishlariga, eksponatlar bilan jihozlash ishlariga esa 4,5 milliard so'm sarflandi.

2019-yil 30-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 443-son qarori bilan muzey negizida "Termiz" davlat muzeyi –qo'riqxonasi tashkil etilib, Muzrabot tumanidagi "Kampirtepa", Jarqo'rg'on tumanidagi "Jarqo'rg'on minorasi", Sherobod tumanidagi "Zarautsoy", Termiz tumanidagi "Zurmala minorasi" va "Eski Termiz, Sho'rchi tumanidagi "Dalvarzintepa" madaniy meros obektlari uning tasarrufiga o'tkazilgan. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Surxondaryo vohasi moziyda ham, sovet hokimiyati yillarida ham O'zbekistonning yirik moddiy va ma'naviy madaniyati markazi bo'lib kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004
2. S.Tursunov.E.Qobilov Surxondaryo tarix ko'zgasida.Toshkent -2001."Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
3. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Toshkent-1991.M.T.Oybek nomidagi Termiz davlat pedagogika instituti
4. A.N.Ro'ziyev Surxondaryo viloyati Toshkent "Jayxun" 1996 y
5. Xasanova, N. (2022). O'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATINING MADANIY-MA'NAVIY SIYOSATI VA UNING NATIJALARI. "Tafakkur" nashriyoti.
6. Khasanova, N. I. (2019). ACTIVITIES OF CULTURAL AND EDUCATIONAL INSTITUTIONSIN SURKHAN OASIS (In the twenties and thirties of the twentieth century). O'tmishga nazar jurnali, 17(3).
7. Ibragimovna, K. N., & Dilmurod o'g'li, B. Q. (2022). Karakalpak Baxshi and the Art of Music. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(5), 89-92.
8. Hasanova, N. I. (2021). Challenges In The Development Of The Health System In Surkhan Volume. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, 3(02), 63-67.
9. Xasanova, N. (2022). O'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATINING MADANIY-MA'NAVIY SIYOSATI VA UNING NATIJALARI. Scienceweb academic papers collection.
10. Ochildiyevna, N. P. (2022). The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of Surkhandarya Higher Education Institutions). Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 178-182.
11. Normamatova, Pardaxol Ochildiyevna (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING YO'LGA QO'YILISHI (SURXON VOHASI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 871-876.



**Arxiv materiallari:**

1. Parfyonov G.V. Istoriya issledovaniya Starogo Termeza. -S. 2.
2. Parfyonov G.V. Istoriya issledovaniya Starogo Termeza. –S. 5.
3. Parfyonov G.A. Kratkaya istoriya Surxandarinskogo oblastnogo krayevedcheskogo muzeya (1933- 1943gg.). Arxivnoye delo № 520.
4. Parfyonov G.A., Kratkaya istoriya Surxandarinskogo oblastnogo krayevedcheskogo muzeya (1933- 1943gg.) Arxivnoye delo № 252. –S. 1-4.
5. Fayozov R.F. Kozlovskiy V.A. Kratkoye opisaniye Surxandarinskogo oblastnogo krayevedcheskogo muzeya. Delo № 294.
6. Azimov M. Termiz tarixi. –B. 140.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 78-ish, 26-varaq.
8. Pardaxol Normamatova, & Abdimumin Jumayev (2021). FUQAROLIK JAMIYATINI QURISH JARAYONI: O‘ZGARISHLAR VA ISTIQBOLLAR. Academic research in educational sciences, 2 (2), 956-962. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00287
9. Normamatova, Pardaxol Ochildiyevna (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING YO‘LGA QO‘YILISHI (SURXON VOHASI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 871-876.
10. Ochildiyevna, N. P. (2022). The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of Surkhandarya Higher Education Institutions). Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 178-182.
11. Khasanova, N. I. (2019). ACTIVITIES OF CULTURAL AND EDUCATIONAL INSTITUTIONSIN SURKHAN OASIS (In the twenties and thirties of the twentieth century). Ўтмишга назар журналы, 17(3).
12. Hasanova, N. I. (2021). Challenges In The Development Of The Health System In Surkhan Volume. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, 3(02), 63-67.
13. Ibragimovna, K. N., & Dilmurod o‘g‘li, B. Q. (2022). Karakalpak Baxshi and the Art of Music. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(5), 89-92.